

BUDDAVIYLIKNI YOYILISHI VA RIVOJLANISHI

G'ulomova Muxlisa Faxriddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi
Otamurodov Doniyor
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiyasi: Buddaviylik, Siddhartha Gautama (Buddha) tomonidan Hindistonda miloddan avvalgi VI asrda asos solingan. Dastlab Hindistonda paydo bo'lgan bu din tez orada Osiyoning boshqa qismlariga, xususan, Shimoliy Xitoy, Janubiy Osiyo, va Markaziy Osiyoga yoyildi. Buddizmning yoyilishi va rivojlanishi, uning asosiy ta'limotlari, ya'ni azob-uqubatdan xalos bo'lish yo'li, meditatsiya va ma'naviy ozodlikka erishish g'oyalarining jahon miqyosida qabul qilinishi bilan bog'liq. Buddizmning asosiy maktablari — Hinayana, Mahayana va Vajrayana — har biri turli ijtimoiy, madaniy va falsafiy muhitlarda rivojlanib, o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Buddizm, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Tailand, Myanmar, Vyetnam va boshqa Osiyo mamlakatlarida milliy diniy oqimlarga aylanishi bilan, hozirgi kunda dunyoning eng yirik va ta'sirli dinlaridan biriga aylandi.

Kalit so'zlar: Buddizm, Siddhartha Gautama, Buddha, yoyilishi, rivojlanishi, Hindiston, Mahayana, Hinayana, Vajrayana, Osiyo, meditatsiya, ma'naviy ozodlik.

Buddizmning yoyilishida Sangxa - buddizm jamoalarining roli katta bo'lgan. Ular yilning ob-xavosi yaxshi bo'lgan 9 oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, ular aholisini buddizmga da'vat qilib ularga Budda ta'limotini o'rgatib yurishgan. Faqatgina Musson yomg'irlari tinmay quygan 3 oydagina o'z ibodatxonalarida muqim bo'lib ibodat bilan shug'ullanganlar. [1]

Eramizdan avvalgi 273-232 yillarda xukmronlik qilgan Imperator Ashoka davri buddizmning keng hududga yoyilishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Ashoka o'zining ilk xukmronlik paytidanoq buddizmga e'tiqod qila boshladi. U buddizmga, monaxlariga, ularning Xindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixoxlik qildi. Ular o'z da'vatlari asosida biron-bir erlik aholi yoki ruhoniylar tomonidan qarshilikka uchrasalar, ular hech qanday qarshi harakat qilmay, o'z yo'llarida davom etganlar. Agar mahalliy aholi tomonidan o'zlariga nisbatan xayrixoxlik sezilsalar, o'sha erga ko'proq ahamiyat berib, ularni ko'proq da'vat qilishgan.[2]

Buddizm jamoalari har qanday boshqa din, madaniyat yoki urf-odatlar qamrovida yoki aralashuvda bir necha yuz yillab o'zlarini saqlab qolish, hamda fursat kelganda ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularni bu xususiyatlari Xindistonda musulmon xukmdorlar davrida, Shri-Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va Yaponiya konfutsianlari davrida, Janubi-Sharqiy Osiyoga buddizmning yoyilishida yaqqol namoyon bo'lgan.

Shunday qilib, buddizm eramizdan avvalgi 1 ming yillik oxirlarida Shri-Lankaga va O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, hamda Old Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorimizda olib borilgan arxeologiya qazish ishlari asnosida Qora tepa, Dalvarzin tepa, uva, Zartepa, g'orovultepa, Ayrito mavzellaridan topilgan. Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g'ildiraklar va stupa qoldiqlarining guvoxlik berishicha Kushon imperiyasida buddizmga katta ahamiyat berilgan.

Buddizm eramizning 1 asrida Xitoyga, IV asrda Koreyaga, VI asrda Yaponiyaga, VII asrda Tibetga, XIII asrdan XVI asrgacha Mongoliyaga, XVII asrdan XVIII asrlargacha Buryatiya va Tuvaga, XIX-XX asrlarda Amerika va Yevropa qit'alariga kirib borgan.

Buddizm o'z ta'limotida hech qachon boshqa xudolarga sig'inishni ta'qiqlamagan. Balki ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berish mumkin. Biroq, nirvana holatiga olib bormaydi deb aytgan. Shu

sababli buddizm ta'limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan xudolari yoki ulug'langan shaxslari timsollari ibodatxonalarni egallagan.

Masalan, Hindistonning buddizmga mansub xudolari "dunyoni yaratuvchi Braxma", "chaqmoq va momaqaldiraq xudosi Indra", "hunarmandchilik ishlari xudosi Xatimanu", Tibetda: "Tibet eposi qaxramoni Baser" timsoli, Mongoliyada Chingizxon kabi milliy panteon buddizm ilohlari sifatiga aylandi. Biroq bu panteonlar Nirvana holatiga olib bormaydi. Faqatgina Buddha nirvanaga olib boradi va insonni qiynoqdan qutqaradi.[3]

Buddizm ta'limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka)- uch savat ma'nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Buddizmning bu yozma manbasi hozirgi davrda Shri-Lankada saqlanib qolgan. U eramizning boshlarida shakllangan. Ular - budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari (sutta-pitaka), raxboniylik axloqi va xonaqoxlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari (vinaya-pitaka), buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abhidharma matnlari(abhidharma-pitaka)dan iborat.

Birinchi bo'lim -"Vinaya-pitaka" (sanskritcha-"Axloqiy me'yorlar kitobi") buddaviylar jamoasi "sanxa" tarkibiga kirish tartibi, rohiblarning xulq-atvori hamda diniy ko'rsatmalarga rioya qilish qonun-qoidalari va unga amal qilmagan taqdirda beriladigan jazolar tavsifini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bo'lim -"Sutta-pitaka" (sanskritcha -"Duolar kitobi") hajmi jihatidan savatlarning eng kattasi hisoblanadi. Buddha ta'limoti masal, suhbat, nasihat, afsona, hikmatli so'z, dostonlar shaklida bayon qilingan.

Uchinchi bo'lim - "Abhidharma-pitaka" (sanskritcha -"Diniy-falsafiy masalalar kitobi")da diniy ta'limotning asosiy qoidalari ifodalanib, Buddaviylik amaliyotining falsafiy mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Buddha hayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.

Buddizm — dunyodagi eng yirik dinlar ichida kadimiylaridan biri hisoblanib, mil. av. VI — V asrlarda Xindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tikod kiluvchilar, asosan Janubiy, Janubi-Sharkiy va Sharkiy Osiyo mamlakatlari: Shri-Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kambodja, Birma, Tailand, Laosda va qisman Yevropa va Amerika kit'alarida, Rossiya Federatsiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikston respublikalarida istikommat kiladilar. Xozirgi kunda e'tikod kiluvchilar soni jihatidan buddizm xristianlik, islom va xinduizmdan so'ng to'rtinchi o'rinni egallaydi. Buddistlarning soni taxminan 700 mln. atrofida bo'lib, ulardan 1 mln. ga yaqini rohiblardir! Buddizm bundan 2500 yildan avvalrok Xindistonda diniy-falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab diniy manbalar va diniy yunalishlar mavjud. Buddizm turli milliy va diniy an'analar bilan kelishuvchanligi sababli ko'p millatlar tomonidan keng kabul kilindi. Buddizm xayotning barcha sohalari: diniy, madaniy, siyosiy va iktisodiy katlamlariga kirib bordi. Qadimgi Baqtriya hududlariga bu din milodiy I asr boshdarida kirib keldi. Eski Termizda ko'plab buddaviylik ibodatxonalari barpo bo'ldiki bu dinning yuksalishi, tarqalishi ayni Eski Termiz bilan bog'liq. Eski Termizda o'ndan oshiq buddaviylik ibodatxonlari mavjud bo'lgan ularning ayrimlarigina saqlanib qolgan bo'lib hali-hanuz ushbu tarixiy qadamjolar insoniyatni hayratga solib kelmoqda ana shunday obidalardan biri Qoratepa buddaviylik ibodatxonasidir. Mazkur inshoot milodiy I-III asrlar.

Eski Termizning shimoliy – sharqiy qismida joylashgan. Dastlab 1926 – 1928 – yillarda Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlat muzeyi ekspeditsiyasi tomonidan o'rganildi. 1937 yilda M.Ye. Masson va Ye.G. Pchelina tomonidan tekshirish ishlari olib borildi. 1960 yillarda arxeolog B.Ya.Staviskiy qazish ishlarini olib borgan. Hozirda O'zbekiston – Yaponiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi ish olib bormoqda. Umumiy maydoni 8 ga. dan ziyod. Qoratepadan topilgan bag'ishlov

bitiklari bo'lgan sopollarda Qoratepadagi ayrim majmualar Kxadevakavixara – monastiri, Vxara Gulavxara vxad – Gulavxara o'g'li (Gondafar) vixarasi, Okvixara deb nomlangan. Qoratepa bitiklarida roxilardan Buddashir, Buddxamitra, Jivananda ismlari eslatilib o'tilgan. Boy erkak va ayol homiylar qiyofasi rasmlarda hamda haykallarda saqlanib qolgan. Qoratepadan ko'plab budda haykallari topilgan. Topilmalar ichida 70 dan ortiq sopol idish siniqlariga xindcha bitilgan yozuvlar (kxaroshti va braxma yozuvlari) va devorlarga chizilgan kushon – Baqtriya hamda fors – paxlaviy yozuvlar xarakterlidir.

Aynan Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalarida shimoliy Baqtriyaning ko'pchilik shahar va qishloqlar aholisi kelib sajda qilishgan. Ibodathonalarning birida Buddaning loydan ishlangan katta haykali va stupaning tag qismi nilufar gulining yaproqlari bilan bezatilgan. Qoratepadan topilgan stupalar buddizmga hos inshoot bo'lib, u budda dini tarqalgan barcha mamlakatlarda uchraydi. Bunday stupalar asosan bir hil usulda tayorlangan. Stupalarning asosi to'rtburchak yoki shunga yaqin bo'lib, bir necha metrga yetgan. Ctupa usti gumbazsimon qilib ishlangan va unga yog'ochdan yoki toshdan yasalgan bir nechta soyabon bo'lgan. Bunday soyabon buddaviylarda chatra deb atalgan. Buddaviylarning hisoblashicha, chatra muqaddas daraxt ramzi bo'lib mazkur daraxt soyasida Buddha o'z diniy nazariyalarini ishlab chiqqan ekan. Qoratepa ibodatxonalarining devorlarida ham diniy mazmundagi rasmlar aks ettirilgan bo'lib, hususan bu yerda Buddaning tasviri ham bo'gan.

Eski Termizga Kushonlar podsholigi hukmronligi davrida kirib kelgan. Milodiy I asr oxirlarida Xitoyga undan so'ng IV asrda Koreya, VI asrda Yaponiya, VII asrda Tibet, XIII-XVI asrlarda Mongoliya, XVII-XVIII asrlarda Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda esa Amerika va Yevropa kit'alariga kirib borgan. Sharqiy Osiyo davlatlariga tarqalishida Eski Termizning alohida o'rni bor. Buddizm ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon kilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) — «uch savat» ma'nosini anglatadi. U uch kismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning kulyozma nusxasi Shri Lankada saklanib kolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular Buddha targibotining hakikiy bayoni hisoblangan sutra matnlari Sutra-pitaka, rohiblik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari Vinaya-pitaka, buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon kilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari — Abxidxarma-pitaka iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, Xitoy, Tibet, Kxmer va Yapon tillaridagi buddizmga oid adabiyotlar ancha keng tarkalgan, ammo ularning ilk buddizm tarixi uchun ahamiyati ozrok Buddha hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi Tripitakada jamlangan.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. -T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. -304 b.
2. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: OOO «Complex print», 2020. -198 b.
3. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: Lesson Press, 2021. - 128

4.<https://stam.uz/yangiliklar/buddaviylik-talimotining-paydo-bolishi-va-tarqalishi/>

5. Barotov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(03).

- 6.Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144
- 7.Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
- 8.Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – C. 15-28.
- 9.Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
- 10.Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
11. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – C. 20-24.
12. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – C. 20-24.
13. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – C. 20-24.
- 14 Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – C. 743-749.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – Т. 1. – №. 1.